INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI KLASTERLI YONDOSHUV ASOSIDA O‘QITISH

Sherbekov Dilshod Karimberdiyevich – Guliston davlat pedagogika instituti tyutori, mustaqil tadqiqotchi
E-mail:sherbekovd@gmail.com

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ta‘lim taraqqiyotidagi pirovard maqsadi – har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali xalqlarning farovonligini oshirishdan iborat bo‘lmoqda. Umummadaniyatining zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyoti, fan va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshiriladigan islohotlar, ilmiy texnik axborotning jadal rivojlanishi va yangilanishi, pedagogik faoliyat mazmunini uzviylik tamoyillari asosida muntazam dinamik o‘zgarishi bilan ifodalanadi. Zamonaviy ilmiy-amaliy tajribalarni pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada aks ettirish yo‘llari bilan belgilanadi, bir qator umummadaniy, umumkasbiy va kompetentliliklarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Shunga ko‘ra uzluksiz oliy ta‘lim muassasalarida informatikani o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori texnologik, ta‘limiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Informatikani o‘qitish voqelikning tobora muhim ijtimoiy-madaniy jarayoniga aylanib borayotganiga qaramay, uning didaktik salohiyati yetarli darajada ochib berilmaganligicha qolmoqda. Shu munosabat bilan, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitishning zamonaviy ta‘lim shakllarining elektron ta‘lim muhitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini klasterli yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishni ilmiy asosda aniqlash va ta‘lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va innovatsion ta‘limning tashkiliy shakllaridan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining umumkasbiy va ixtisoslik kompetensiyalarini shakllantirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan Harakatlar strategiyasida “sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalar oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, jumladan, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi mexanizmlar samaradorligini oshirishni taqozo qiladi. Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan resurslardan samarali foydalanish, tashqi va ichki omillarga muvaffaqiyatli qarshilik ko‘rsatishga imkon beradigan, bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini rivojlantirishning innovatsion

yondashuvlaridan biri klasterli yondashuvdir. Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo`lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg`unlashtirish – innovasion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga yo`naltirishdan iborat. Klasterni shakllantirish jarayoni sheriklar o'rtasida ehtiyojlar, texnologiyalar haqida ma'lumot almashishga asoslangan. Klasterli yondashuvda klasterning barcha a'zolari uchun turli aloqa vositalari yordamida erkin ma'lumot almashish va yangiliklarni tez tarqatish imkoniyati mavjud. Klasterli yondashuv metodining rivojlanishini belgilovchi muhim omillaridan biri uning tadqiqot tashkilotlari bilan aloqaga asoslanligidir.

Oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini klasterli yondashuv asosida o'qitish tayyorgarligini innovatsion ta'lim shakllarining klasterli muhitida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari didaktik tamoyillar va metodologik yondashuvlarni shakllantirish orqali gnostik, konstruktiv, loyihalash, kommunikativ, tashkiliy, ekspert-baholash komponentlarni rivojlantirish asosida ta'minlangan;

-bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini ta'lim berishning innovatsion-tashkiliy shakllaridan foydalanib axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlantirishning klasterli modeliga asoslangan metodik modeli maqsad, mazmun va natija komponentlarni uzviylashtirish hamda ta'lim subyektlari va hamkor tashkilotlarining klasterli o'zaro ta'siri sharoitida informatika fani o'qitishni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

-bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini ta'lim shakllarining elektron ta'lim muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini klasterli yondashuv asosida o'qitish tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi kasbiy kompetentlikning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv komponentlarini uzviylashtirish orqali informatika fani o'qitishda telekommunikatsion loyihalashni intensiv rivojlantirish hamda elektron didaktik ta'minotni raqamli texnologik mobillashtirish asosida takomillashtirilgan;

-oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining mutaxassisligiga xos loyihalash, ishlab chiqarish, konstruktorlik, yaratuvchanlik, tadqiqotchilik kasbiy sifatlarini va axborot-texnologik tayyorgarligini rivojlanganlik darajalarini baholashning kognitiv, motivatsion, amaliy, shaxsiy mezonlari obyektiv va subyektiv baholash metodlarini strategik rivojlantirish asosida takomillashtirilgan.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi yangi yaratilgan axborot-kommunikatsiya vositalarining butun xilma-xilligidan, birinchi navbatda, pedagogik amaliyotda optimal tadbiq etiladigan pedagogik zarur axborot texnologiyalari maqomiga javob beradigan kasbiy qobiliyatga ega bo'lishi lozim. O'qituvchilarining axborot texnologiyalari tayyorgarligining yuqori sifati intensiv va dinamik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib,

tayyorgarlikning innovatsion ta‘lim shakllarining klasterli muhitida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlariga, didaktik tamoyillar hamda metodologik yondashuvlarini shakllantirishga yordam beradi. Talabalarning kasbiy rivojlanish sur‘atlariga mos ravishda tizimli ta‘sir ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlash mobaynida yangi axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi nafaqat ekstensiv, balki intensiv omillarga ham bog‘liq emas, ular orasida apparat va dasturiy ta‘minotning bir necha avlodini uzluksiz o‘zgartirish omili birinchi o‘rinda turadi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak informatika o‘qituvchisining axborot texnologiyalari tayyorgarligi uchun faqat tegishli ta‘lim standarti bilan belgilangan asosiy bilim va ko‘nikmalarni egallash orqali gnostik, konstruktiv, loyihalash, kommunikativ, tashkiliy, ekspert-baholash komponentlarni rivojlantirishjariga asos bo‘ladi. Bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari tayyorgarligining yuqori sifatini faqat ushbu maxsus, jadal rivojlanayotgan pedagogik jarayonni maqsadli boshqarish asosida ta‘minlash mumkin, bu esa barcha yangi o‘qitish shakllarini o‘z ichiga oladi. Axborot texnologiyalari tayyorgarlik sifatini maxsus tashkil etilgan boshqarish tufayli oliy ta‘lim nafaqat jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan ijtimoiy innovatsion xarakterga ega bo‘ladi, balki mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ichida zarur samaradorlikni saqlab qoladi. Informatika fani o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari tayyorgarligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni belgilovchi ikkinchi omil MS Windowsdan tashqari operatsion tizimlarning jadal rivojlanishi, professional dasturiy ta‘minot turlari hajmi va diapazonining oshishi hisoblanadi. Mavjud metodik adabiyotlar axborotlarni kompyuterda qayta ishlash vaqtida kerakli natijani qanday olish mumkin, degan savolga eng ko‘p javob beradi.

Inson bilimining ilmiy va amaliy hamda ijtimoiy munosabatlar, dinamik madaniy - rivojlangan o‘zgarishlar sharoiti, jamiyat axborot-kommunikatsion talablari ko‘pincha mavjud ta‘lim standartlari axborot va texnologik imkoniyatlarini ortda qoldiradi, lekin standartlar ham shunga ko‘ra doimiy yangilanib boradi. Shuning uchun, informatika fani o‘qituvchilarining axborot texnologiyalari tayyorgarligining yuqori sifatini belgilovchi eng istiqbolli va samarali mezonlarni aniqlash orqali mavjud ijtimoiy talablar va imkoniyatlar, ta‘lim standartlarining ilg‘or kombinatsiyasi asosida sifatni boshqarish tizimini joriy etish maqsadiga erishish mumkin. Ta‘lim jarayoni doirasida sifat tushunchasi muhim tarbiyaviy jihatlarni aniqlashtirish, kasbiy tayyorgarlik jihatlarining kengligi, ta‘lim jarayonining barcha sohalarini qamrab olishni ham talab etadi.

Uzluksiz malaka oshirish tizimini rivojlantirishda masofali ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda masofaviy ta’lim eng ommabob ta’lim shakli bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarda 30 yildan buyon foydalanib kelinmoqda va

ta'limning barcha darajalarini o'zida mujassam etgan xalqaro ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Bilamizki, masofaviy ta'lim boshqa o'qitish shakllarining eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan integrallashgan ta'lim shakliga aylangan. Ta'lim tizimida o'quv jarayonini yangidan isloh qilish, yangi information texnologiyalarga asoslangan o'qitish usullarini ishlab chiqish, ularni keng joriy qilish bugunning talabidir. Bunda masofaviy ta'lim tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Masofaviy o'qitish bugungi kunda nafaqat o'quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizatsiyalash jarayonida katta-katta korxonalarga, muassasalarga o'zlariga mutaxassislar tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularning bilim darajalarini va ko'nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o'rin tutadi. Masofaviy o'qitishni qo'llagan holda aholining umumiy bilim darajasini va bu bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo'ladi. Bilimlarni o'z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Yagona ta`lim muhitini yaratib, unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomova R.V. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalari / - O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar‖ mavzusidagi Respublika 15-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferentsiya materiallari 8-qism. 2020 yil, 30 aprel. – 163-164-betlar.

2. Саломова Р.В. Инновационный подход к обучению как основа реализации современных образовательных программ// Научный издательский центр «Абсолют» Педагогический чтения Выпуск №1 Волгаград. 2019. – С.19-21. 53

3. Саломова Р.В., Исмаилова З.К., Чориев Р.К., Жуманазарова З.К. Инновационный подход в обучении информатике как основа фомирования профессиональной информационно-технологической компетентности специалиста / Межвузовский научный конгресс Высшей школа: научные исследования. Москва, 2020. – С.32.36.

4. Саломова Р.В., Жумаев Э.Э. Профессионализм педагогика: Компетентностный подход в образовании/—SILKWAY INTERNATIONAL UNIVERSITY‖ конференция, Республика Казахстан. 2019.

5. Salomova R.V. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda fanlararo integratsiyaning mohiyati / Oliy ta'lim: muammo va echimlar Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Ilmiy maqola va tezislar to'plami. 2021 yil, 25 may. – 363-364-betlar.